

TIL – MUQADDAS NE'MAT

Sarimsaqov Ikromjon,

Marhamat tumani 29-umumiy o'rta ta'lim maktabi

ona tili va adabiyot hamda rus tili va adabiyoti fanlari o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot bosqichlari, mutafakkirlar, o'zlik, millat tafakkuri, mantiq ilmi, ruhiy takomil, lisoniy ifoda.

Til benihoya muqaddas va mo'tabar ne'mat. U odam degan mavjudotni shakllantirgan, qavmlar o'laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining eshiklarini ochgan bemisl bir vositadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o'zligiga nopisandlik demakdir. Tilga hurmat va e'tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtaramligining e'tirofidir.

Bejiz emaski, xalqimiz tilga, xususan, o'zining ona tiliga muntazam muhabbat bilan qaragan, uni e'zozlab ardoqlagan, o'zbek tilining mukammalligi va betakror ohanglaridan faxr-u iftixor qilgan.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida:

"Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi", degan edi.

Har bir xalq, har bir millat o'z yurtida, o'z Vatanida shakllanadi va taraqqiy etadi. Xalqlarning kamolotida insonlar o'rtasidagi o'zaro muloqotni ta'minlab beruvchi tilning o'rni katta. Til millat ruhi va tafakkurining yorqin ifodasi sifatida o'zi mansub bo'lgan millat bilan birgalikda takomil topib boradi.

Vatanimizning, davlatimizning eng muhim belgilaridan biri bu – bizning yagona tilda – o‘zbek tilida muloqot qilishimiz, uning sha’ni, obro‘yi, nufuzi uchun barchamiz birgalikda harakat qilishimizda namoyon bo‘lmoqda. Yurtimizda ona tilining rivojlanishi va takomil topishi uchun keng imkoniyatlar eshigi ochib berilgan.

Ona tili milliy qadriyatlarning boshi, hayotimizning asosi, millat tafakkurining betakror timsoli, ulkan ma’naviy boylik sifatida jamiyatdagi har bir o‘zgarishni, yangilanishni o‘zida ifodalab bormoqda. Har birimizning inson bo‘lib shakllanishimiz va jamiyatda o‘z o‘rnimizni topib borishimizda ona tili muhim ahamiyatga ega.

So‘zga oshuftalik, so‘zning ostini ham, ustini ham ko‘ra olishga intilish, nutqning latifligidan, nutqdagi so‘zlarning favqulodda uyg‘unligidan zavqlanish, ona tilida ta’sirli nutq ayta oluvchiga, xitobat san’ati sohibiga ayricha havas bilan qarash o‘zbekning azaliy odatlaridandir. Zotan, nutqning go‘zalligi, tilning burroligi, lisoniy ifodaning aniqligi inson uchun o‘ziga xos husndir, bu husn oxir-oqibatda jamiyatning, millatning husnini ko‘rsatadi.

Tilimizda muayyan fikrni bir qancha shakl-u shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud. Aynan qaysi shakl-u shamoyilni tanlash, muloqot vaziyati uchun eng uyg‘un ifodani topa bilish nutq egasining mahorat-u malakasi, ma’rifat-u ma’naviyatiga bog‘liq. Muloqot vaziyatini tugal his etmasdan turib tanlangan lisoniy ifoda, har qancha go‘zal bo‘lmasin, maqsad nishoniga yetib bora olmaydi. Bunday ifoda hatto boshga balo keltirishi ham mumkin. Bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Xususan, XI asr Sharqining buyuk allomasi Kaykovusning “Qobusnoma” asarida xalifa Horun ar-Rashidning tushi haqida hikoyat keltirilgan. Bu ibratli hikoyatda tilning nechog‘lik nozik va murakkab qudrat ekani, lisoniy ifodalarni ziyraklik bilan tanlashning naqadar muhimligi sodda tarzda ta’kidlangan.

Kaykovus o‘z avlodlariga shunday nasihat qiladi: “Ey farzand, toki qila olsang, so‘z eshitmakdin qochmag‘ilkim, kishi so‘z eshitmak bila suxango‘ylik hosil qilur. Avvalo buni shundoq dalillash mumkin, agar bir o‘g‘lon onadin tug‘ilsa, unga yerning ostidan bir joy qilib, sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga

gapirmasalar, u o'g'lon hech kishining so'zin eshitmasa, ulug' bo'lg'onda lol bo'lur. Ko'rmasmusankim, barcha lollar kar bo'lurlar".

Bolalikdan jism-u joniga mehr-u muhabbat, milliy tuyg'ular, oliyjanob fazilatlar, ezgu orzularni ona tili vositasida jo qilmagan insonning ma'naviy kamolot pillapoyalariga dadil qadam qo'ya bilmog'i mushkul. Ota va ona bu go'zal tuyg'ularni, insonlikning tamalini tayin etadigan axloqiy qoidalarining asoslarini jon-u jahoni bo'lmish farzandining murg'ak shuuriga muqaddas ona tilida singdirmas ekan, keyingi ta'lim-u tarbiya, ta'na-yu dashnom, maktab-u madrasalarning ta'siri hech va kechdir.

Bolaning ilk, tetapoya til malakalari va demakki, dunyoni milliy ko'z bilan idrok etish tajribalari oilada tarkib topadi. Har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi bor, o'ziga xos idrok intizomi bor, ya'ni o'ziga xos tafakkur an'anasi bor. Shuning uchun ham "milliy ong", "milliy tafakkur", "milliy tuyg'u" degan oliy tushunchalar ming yillardir odam bolasining qalbidagi nurga qudrat va qamrov baxsh etib keladi. Tilning mohiyati, vazifasi ko'pincha benihoya jo'n talqin etiladi. Go'yoki til – eng muhim aloqa vositasi bo'lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekani uning juda ko'plab vazifalaridan faqat bittaginasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni borada tilning ruhiy-estetik hodisa ham ekanligini unutmaslik lozim.

Eng birlamchi, eng mustahkam, eng zaruriy ona tili muhiti, tabiiyki, oila, uy muhitidadir. Bolaning go'daklikdan dunyoni ona tilida idrok etmog'i, bu idrokning unda butun umr sobit qolmog'i uchun oila, ota-onas mas'uldir. Milliy ruhni shakllantiradigan, muntazam mustahkamlaydigan, uning ardoq bilan avaylab-asralishiga imkon beradigan eng odil omil ona tilidir. Til – xalq, millat ruhining betakror va hech bir zamon xira tortmas ko'zgusidir. Bolaning tili ona tili sifatida chiqib, ona tili sifatida kamol topgandagina uning shuurida tom ma'nodagi milliy ruh barqaror bo'ladi.

Boshqa tilni o'rganish dunyoni o'z tilidagidan yana boshqa bir tarzda ko'rishga odatlanishdir. Bir necha tilni bilish bir narsani bir necha tomondan ko'rishga imkon beradi. Bu, albatta, dunyoni kengroq, chuqurroq bilishga yo'l ochadi. Xorijiy tillarni

bilish bugun butun dunyo davlatlari bilan erkin va dadil tillashayotgan mustaqil O'zbekiston uchun muhim. Mamlakatimizda uzoqni ko'zlab olib borilayotgan oqilona siyosat tufayli xorijiy tillarni o'rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Yurtimizdagi bu keng qamrovli ishlar tez orada aniq natijalarini ko'rsatadi.

Bolaning nutqidagi har qanday nodurustlik, noqislik xoh katta bo'lsin, xoh kichik, onaning ziyrak nigohidan chetda qolmasligi lozim. Kattalar bolalar oldida tugal va toza nutq bilan muomala qilishi, so'zni chala, qisqartirib talaffuz etmasliklari, jargon so'zlarni ishlatmasliklari maqsadga muvofiq. Bolada taqlidchilikning juda kuchli bo'lishini hamma biladi, u qulog'iga tushganini darhol o'zlashtiradi. So'zga chechanlikning ilk kurtaklari bolalikdan parvarish qilinmasa, so'z hissi, go'zal ifoda tuyg'usi oilada kamol topmasa, keyin maktabga borgandan so'ng bolaning tilini burro qilish qiyin kechadi. Muayyan bir sheva talaffuziga mutlaqo tabiiy sharoitda moslashgan tilni adabiy til talaffuziga o'rgatish uchun maktabda o'qituvchi hazilakam kuch, mehnat sarflamaydi. Ziyrak ota-ona bola hali uydaligidayoq unga adabiy til haqida oddiy, ilk tushunchalarni berib borsa, foydali bo'ladi.

Farzandning til tarbiyasida, umumiy kamolotida mantiqiy tafakkur malakalarining benihoya katta ekani ma'lum. Shuning uchun yaxshining yaxshi, yomonning yomonligini mantiqan farqlash yo'llari haqida o'gitlar berish ham ota-ona bo'ynidagi burchdir. Tilimizda "mantiq" va "nutq" so'zlarining o'zagi aynan bir ekani ma'lum. Hayratlanarlisi shundaki, maktabda nutqni, uning grammatikasini o'rgatamiz, ammo fikrning, tafakkurning asosi bo'lmish mantiqni o'rgatmaymiz. Holbuki, til va tafakkur chambarchas bog'liq, mantiq ilmisiz haqiqiy ijodiy tafakkur, go'zal va aniq nutq bo'lishi mahol. Ikki ma'lum fikrdan uchinchi yangi fikrni mustaqil holatda keltirib chiqarish va uni maromiga yetkazib tilda ifodalay olish uchun mantiq qoidalaridan boxabarlik zarur bo'ladi.

Ko'pincha bolalarimiz nutqida ko'zga tashlanadigan no'noqlik, ijodiy fikrlashning oqsoqligi, fikr bayonida qolipdan chiqolmaslik, tafakkur to'ntoqligi kabi qusurlarning ildizlari teran mantiq malakalarining yetishmasligi bilan bog'liq. Mantiqiy tafakkur tarbiyasi masalasida ham oila boshlang'ich nuqta bo'lmog'i lozim.

Ma'lumki, xalq tili – tabiiy va tarixiy taraqqiyot jarayonlari ichidagi, ammo jilo berilmagan til. U o'z go'zalligini muntazam qanday bo'lsa, shundayligicha asragan, bezalmagan, mezon zanjiriga solinmagan, muayyan hududga mansub goh behad nozik, gohida mundayroq o'ziga xosliklarni, ya'ni shu til doirasidagi barcha shevalarni ham qamragan tildir. Adabiy til esa ana shu xalq tilining, aytish mumkinki, yagona ko'rkli va komil farzandidir. O'zbek adabiy tili o'zbek xalqi tili zaminida tarkib topgan, u xalq tilining tegishli qonuniyatlar asosida mezonlashtirilgan, sayqallangan, oro berilgan shaklidir. O'zbek adabiy tilining shakllanish asosi ham, boyish va oziqlanish manbai ham ayni shu xalq tilidir. Adabiy tilimizning baquvvat tirgagi, sinoatli sarchashmasi qamrovi sarhad bilmas xalq tilidir. Bugungi o'zbek adabiy tilimizning boyligi va favqulodda ifoda imkoniyatlariga egaligi aslida xalq tilimizning rasoligi va ravonligi bilan izohlanadi.

Tilning birinchi ma'rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Bundan tashqari, til tufayli bilim avloddan avlodga og'zaki va yozma tarzda olib o'tiladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi.

Til ilm olishda zamon va makon g'ovini o'rtadan ko'taradi. Til tufayli eng qadimgi ma'lumotlarga ega bo'lamiz, hatto kelajakka oid ma'lumotlarni ham olamiz. Til tufayli sezgi a'zolari bilan bilib bo'lmaydigan narsalarni ham o'rganamiz. Ko'rinishi, shakli bir xil narsalarning aksi ongimizga o'rnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat so'z shaklida o'zlashtiramiz. Xuddi shuningdek mavjudotning ko'rinmas ichki jihatlarini ham so'z shaklida o'zlashtiramiz va til vositasi bilan o'zgalarga tushuntiramiz.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni 1989-yil 21-oktyabrda qabul qilingan. Shu davrdan boshlab har yili bu kunni til bayrami sifatida nishonlaymiz.

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek tili – davlat tiliga e'tibor kuchaydi, ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O'zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to'g'risida g'amxo'rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi.

Buyuk shoir va mutafakkir shunday yozadi:

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Demakki, til jamiyatga xizmat qiladi, insonlarning ehtiyojlarini ta'minlash vazifasini bajaradi. Til hech qachon jamiyatdan tashqarida paydo bo'lmaydi va rivoj topmaydi. Insonni hayvonot dunyosidan ajratib turadigan, jamiyat a'zolarini turli maqsadlar sari birlashtira oladigan, ularni o'zaro jipslashtiradigan va qudratli kuchga aylantiradigan qudratli vosita bu – tildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Mahmudov, "Til". T., "Yozuvchi", 1998. 3, 10, 12, 26-betlar.
2. Djurabayeva, "Ona tili". T., "Navro'z", 2019.
3. A. Nurmonov, M. Mahmudov, "O'zbek tilshunosligi tarixi". T., "Kamolot-Qatortol", 2000.
4. R. Rafiyev, N. G'ulomova, "Ona tili va adabiyot". T., "Sharq", 2006.
5. Ziyonet.uz ma'lumotlari.